

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XO'JALIK PROTSESSUAL KODEKSI

LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 478-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonuni bilan o'z kuchini yo'qotganligi sababli mazkur Kodeks ham 2018-yil 1-apreldan o'z kuchini yo'qotgan.

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-BOB. ASOSIY QOIDALAR

1-modda. Iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqi

Har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab iqtisodiy sudga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Iqtisodiy sudga murojaat qilish ushbu Kodeksda belgilangan shakllarda amalga oshiriladi. Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar iqtisodiy sudga axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Xo'jalik sudlarining ushbu Kodeksda belgilangan barcha vakolatlari iqtisodiy sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

(1-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 12-apreldagi O'RQ-428-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 15-son, 242-modda)

2-modda. Xo'jalik sudining odil sudlovni amalga oshirishi

Xo'jalik sudi iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan, ushbu Kodeks va boshqa qonunlar bilan o'zining vakolatiga kiritilgan nizolar hamda boshqa ishlarni hal qilish yo'li bilan odil sudlovni amalga oshiradi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III-moddasi, mazkur Kodeksning 23 va 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qo'shma qarori 2-bandining birinchi xatboshisi.

3-modda. Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari

Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiyot sohasida korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

2) iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2015-yil 19-iyundagi 283-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining protsessual muddatlarga oid normalarini xo'jalik sudlari tomonidan qo'llanilishining ayrim masalalari haqida"gi qarorining 1-band.

4-modda. Xo'jalik sudlarida sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari

Xo'jalik sudlarida sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeksdan hamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

5-modda. Xo'jalik sudi sudyalarning mustaqilligi

Odil sudlovni amalga oshirishda xo'jalik sudining sudyalari mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasi birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 4, 67-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 236-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qarori 3-bandining birinchi xatboshi, 4, 5-bandlari, 7-bandining birinchi xatboshisi, 8-bandi, 9-bandining birinchi, ikkinchi xatboshilari, 12-bandning birinchi xatboshisi.

6-modda. Xo'jalik sudida ish qo'zg'atish

Xo'jalik sudi:

1) manfaatdor shaxslarning;

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 36-moddasi ikkinchi qismi.

2) prokurorning;

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 43-moddasi ikkinchi qismi.

3) qonun bo'yicha davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo'jalik sudiga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan hollarda davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atadi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 44-moddasi birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 3-bandining birinchi xatboshisi.

Agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, taraflar o'zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal qilish choralari ko'rganlaridan so'nggina xo'jalik sudida ish qo'zg'atish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atish taraflar yuqoridagi choralarni ko'rgan-ko'rmaganliklaridan qat'i nazar amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeks 86-moddasi birinchi qismining 8-bandi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 384-moddasining ikkinchi qismi, 724-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi 122-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 17-19-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisi.

7-modda. Qonun va sud oldida tenglik

Xo'jalik sudida nizolarni hal qilish korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligi, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa — jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan, shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qo'shma qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining 1-bandi.

8-modda. Ishlarni ko'rishning oshkoraligi

Xo'jalik sudlarida ishlar oshkora ko'riladi.

Davlat sirini yoki tijorat sirini saqlash zarur bo'lgan taqdirda ishni yopiq majlisda ko'rishga yo'l qo'yiladi. Ishni yopiq majlisda videokonferensaloqa rejimida ko'rishga yo'l qo'yilmaydi.

(8-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining ikkinchi xatboshisi.

Yopiq majlisda ko'rilgan ishni elektron shaklda shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-son Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Ishni yopiq majlisda ko'rish to'g'risida ajrim chiqariladi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 126, 151-moddalari.

9-modda. Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi

Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeks 36-moddasining to'rtinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qo'shma qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining 1-bandi.

10-modda. Sud ishlari yuritiladigan til

Xo'jalik sudida sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilarining tarjimon yordamida ishga taalluqli materiallar bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish hamda o'z ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Turli davlatlarning korxona, muassasa va tashkilotlari o'rtasidagi xo'jalik nizolari sudning ajrimiga binoan taraflar uchun maqbul tilda olib boriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi, mazkur Kodeksning 48-moddasi, 170-modda ikkinchi qismining 3-bandi, 188-modda uchinchi qismining 3-bandi, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi.

11-modda. Sudda ishni ko'rishning bevositaligi

Xo'jalik sudi ishni ko'rishda ish bo'yicha barcha dalillarni bevosita tekshirishi shart.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 128-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 161-sonli "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarorining 3-bandi.

LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

12-modda. Nizolarni qonun hujjatlari asosida hal qilish

Xo'jalik sudi nizolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qiladi.

Xo'jalik sudi ishni ko'rish chog'ida davlat organi yoki boshqa organning hujjati qonunga to'g'ri kelmasligini, shu jumladan u vakolat doirasidan chetga chiqqan holda chiqarilganini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 16-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 161-sonli "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarori 2-bandining birinchi xatboshisi.

Nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari bo'lmagan taqdirda xo'jalik sudi shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini tatbiq etadi, bordi-yu bunday normalar ham bo'lmasa, qonunlarning umumiy asoslari va mazmuniga tayanib nizoni hal qiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 5, 6-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 161-sonli "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarori 2-bandining birinchi xatboshisi.

Tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar o'rtasidagi nizolar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi.

(12-modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrdagi O'RQ-355-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013-y., 41-son, 543-modda)

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2012-yil 14-sentabrdagi 12/239-sonli "Tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarini sud amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qo'shma qarorining 11-bandi.

Xo'jalik sudi qonunga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatlarning huquq normalarini qo'llaydi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo'limi ("Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq qilish").

13-modda. Chet davlat huquqini qo'llash

Chet davlat huquqi qo'llangan taqdirda xo'jalik sudi bu huquq normalarining mavjudligi va mazmunini ularning tegishli davlatdagi sharhlanishiga va amalda qo'llanishiga muvofiq holda aniqlaydi.

Chet davlatning huquq normalari mavjudligini va ularning mazmunini aniqlash maqsadida xo'jalik sudi yordam berishni yoki tushuntirib berishni so'rab, O'zbekiston Respublikasining hamda xorijiy davlatning vakolatli organlari va tashkilotlariga murojaat qilishi yoxud mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1160-moddasi.

Agar ko'rilgan choralarga qaramay chet davlatning huquq normalari mavjudligi yoki ularning mazmuni aniqlanmasa, xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasining tegishli huquq normalarini qo'llaydi.

14-modda. Sud hujjatlarining majburiyligi

Xo'jalik sudi hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 102, 104, 135, 137, 138, 151, 152, 171, 189, 201-moddalari.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi, mazkur Kodeksning 209-moddasi.

Xo'jalik sudi qabul qilgan sud hujjatlarini bajarmaslik ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 181, 198¹-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 1/60-sonli "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qo'shma qarori 1-bandining [uchinchi xatboshisi](#), O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi [Qonuni](#).

2-BOB. XO'JALIK SUDINING TARKIBI. RAD QILISH

15-modda. Xo'jalik sudining tarkibi

Xo'jalik sudlarida birinchi instansiya bo'yicha ishlar sudyaning yakka o'zi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida esa uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'riladi.

(15-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 12-apreldagi O'RQ-428-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 15-son, 242-modda)

Sud raisining qarori bilan har qanday ish hay'atda ko'rilishi mumkin.

Apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalarida barcha ishlar xo'jalik sudi tomonidan hay'atda ko'riladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 28-dekabrdagi 173-sonli "Apellatsiya instansiyasi sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksini qo'llash haqida"gi qarorining [9-bandi](#), O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2003-yil 25-iyuldagi 111-sonli "Xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanishi haqida"gi qarori 12-bandining [birinchi xatboshisi](#).

Ish hay'atda ko'rilayotganda sudning tarkibi uch yoki undan ortiq toq nafar sudyadan iborat bo'lishi kerak.

Ishni ko'rish chog'ida hamma sudyalar teng huquqlardan foydalanadilar.

Ushbu Kodeksga muvofiq sudyaga ishni va ayrim masalalarni yakka tartibda hal qilish huquqi berilgan bo'lsa, u xo'jalik sudi nomidan harakat qiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeks 15-moddasining [birinchi qismi](#), 103-moddasi, 116-moddasining [birinchi qismi](#), 122-moddasi, 155³-moddasining [birinchi qismi](#), 155⁸-moddasining [birinchi qismi](#), 162-moddasining [birinchi qismi](#), 180-moddasining [ikkinchi qismi](#), 181-moddasining [birinchi qismi](#).

LexUZ sharhi

Shuningdek, qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2003-yil 25-iyuldagi 111-sonli "Xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanishi haqida"gi qarori 9-bandining [birinchi xatboshisi](#).

16-modda. Xo'jalik sudida masalalarni hal qilish tartibi

Xo'jalik sudida ish hay'atda ko'rilayotganda va hal qilinayotganda kelib chiqadigan masalalar sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Sudyalardan birortasi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Majlisga raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Boshqa sudyalarning qaroriga qo'shilmagan sudya bu qarorga imzo chekishga majbur, u o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli. Alohida fikr ishga qo'shib qo'yiladi, lekin e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydilar.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining [39-bandi](#).

17-modda. Sudyani rad qilish

Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va u rad qilinishi lozim:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining qarindoshi bo'lsa;

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi 162-sonli "Birinchi instansiya sudida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori 6-bandining [ikkinchi xatboshisi](#).

Oldingi tahrirga qarang.

2) shu ish ilgari ko'rilganida ekspert, tarjimon, prokuror, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa;